



UDK:32.001:316.334.3

Abrar TURAYEV,
Jizzax davlat pedagogika universiteti dotsenti, PhD
E-mail: ijtimoiy2017@mail.ru

O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi professori, s.f.d M.Muhammadsidiqov taqrizi asosida

“AQL MARKAZLAR” TUSHUNCHASI: TALQINLAR VA YONDASHUVLAR

Annotatsiya

Ushbu maqolada globallashtirish sharoitida siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonida “aql markazlari”ning ortib borayotgan ahamiyati tahlil qilinadi. Muallif “aql markazlari”ga oid ilmiy yondashuvlarni besh asosiy guruhga ajratgan holda ularning mohiyati, funksiyasi, tashkiliy modeli va siyosiy tizimdagi o‘rnini har tomonlama yoritadi. Xususan, klassik G‘arb modeli bilan “gibrid” yondashuvlar o‘rtasidagi tafovutlar, siyosiy-funksional va ilmiy-intellektual yondashuvlar, hamda kontekstual farqlar keng muhokama qilinadi. Maqolada ekspertlar tomonidan keltirilgan ta’riflar asosida “aql markazlari”ning zamonaviy talqini ishlab chiqiladi.

Kalit so‘zlar: “Aql markazlari”, ekspert-tahliliy institutlar, “think tanks”, siyosiy qarorlar, strategik tavsiyalar, gibrid model, tashkiliy mustaqillik, kontekstual tahlil, siyosiy tizim, siyosiy maslahat, fuqarolik jamiyati.

TRANSFORMATION OF THINKING IN THE SPACE OF VIRTUAL KNOWLEDGE

Annotation

This article analyzes the growing significance of think tanks in the decision-making processes of political institutions amid globalization. The author classifies academic approaches to think tanks into five main categories and comprehensively examines their essence, functions, organizational models, and roles within political systems. The article thoroughly discusses the differences between the classical Western model and hybrid approaches, political-functional and intellectual-scientific approaches, as well as contextual distinctions. Based on existing expert definitions, the study develops a modern interpretation of think tanks.

Key words: “Think tanks”, expert-analytical institutes, think tanks, political decision-making, strategic recommendations, hybrid model, organizational independence, contextual analysis, political system, policy advice, civil society.

ТРАНСФОРМАЦИЯ МЫШЛЕНИЯ В ПРОСТРАНСТВЕ ВИРТУАЛЬНЫХ ЗНАНИЙ

Аннотация

В данной статье анализируется возрастающее значение «мозговых центров» (аналитических центров) в процессе принятия политических решений в условиях глобализации. Автор классифицирует научные подходы к данным институтам на пять основных групп, всесторонне освещая их сущность, функции, организационные модели и место в политической системе. Особое внимание уделено различиям между классической западной моделью и гибридными подходами, политико-функциональным и интеллектуально-научным направлениям, а также контекстуальным особенностям. На основе различных определений, предложенных экспертами, автор разрабатывает современную интерпретацию понятия «мозговой центр».

Ключевые слова: «Мозговые центры», экспертно-аналитические институты, «think tanks», политические решения, стратегические рекомендации, гибридная модель, организационная независимость, контекстуальный анализ, политическая система, политическое консультирование, гражданское общество.

Kirish. Globallashtirish jarayonida davlatlar va siyosiy institutlar tomonidan maqbul siyosiy qarorlar qabul qilish, shuningdek, uzoq muddatli strategik yo‘nalishlarni belgilashda ilmiy asoslangan tahlil va tavsiyalarga bo‘lgan ehtiyoj ortib bormoqda. Bu jarayonda siyosiy va ekspertlik faoliyatini amalga oshiruvchi “aql markazlari”ning roli sezilarli darajada oshmoqda. Mazkur markazlar ichki va xalqaro tushdagi dolzarb muammolar yuzasidan siyosatga yo‘naltirilgan ilmiy-tahliliy tadqiqotlar olib boradi, tegishli maslahatlar ishlab chiqadi va bu orqali siyosat ishlab chiquvchilar hamda jamoatchilikka ongli va asosli qarorlar qabul qilish imkoniyatini yaratadi.

Tahliliy markazlarning vazifalari, faoliyat yo‘nalishlari va ilmiy-mafkuraviy asoslariga doir yondashuvlar akademik doirada turlicha talqin qilinadi. Ular adabiyotlarda “aql markazlari”, “ekspertlik markazlari”, “tahlil markazlari” kabi turli atamalar bilan ifodalanadi. Bunday terminologik xilma-xillik ushbu institutlarning funksional ko‘lamining murakkabligi hamda ularning siyosiy tizimdagi o‘rniga berilgan yondashuvlar farqlari bilan izohlanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Davlat boshqaruvi sohasiga pragmatik liderlarning kelishi “aqliy markaz”larga bo‘lgan ehtiyojni yanada ortirdi. Sababi, davlat boshqaruvi sohasida davlatning strategik rejasini ishlab chiqish, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan ehtimoliy yoki real xavf va tahdidlarni aniqlash, ularni prognozlash bo‘yicha tahliliy ma’lumotlarga ehtiyoj ortmoqda[1]. Shu nuqtayi nazardan, bu kabi tahlil markazlariga ehtiyoj doim yuqori hisoblanadi.

XX asrning o‘rtalaridan boshlab “siyosat ratsional siyosiy tahlil asosida ishlab chiqilgan faoliyat”[2] sifatida qarala boshlandi deyish mumkin. Shu tariqa, zamonaviy tahliliy markazlar hozirgi ko‘rinishini ilmiy faoliyatning institutlashuvi jarayonlari jumladan, bilimlarning professionallashtirish va ixtisoslashuvi, ilm-fan hamda ilmiy bilish shakllarining obro‘-e‘tiborining oshishi, shuningdek, ilmiy hamjamiyat tomonidan intellektual resurslarning konsratsiyalashuvi bilan birga siyosiy tizimning nomarkazlashuvi natijasida shakllantirdi. Agar birinchi jarayon ekspertlarning, xususan tahliliy tuzilmalar

vakillarining siyosiy qarorlar qabul qilish jarayoniga integratsiyasini ta'minlagan bo'lsa, ikkinchi jarayon tahliliy markazlarga siyosiy jarayonlarga mustaqil ta'sir ko'rsatish imkoniyatlarini berdi va ularning siyosat subyekti sifatidagi maqomini belgilab berdi.

Bu o'rinda ta'kidlash kerakki, bu kabi tahliliy faoliyat bilan shug'ullanuvchi markazlar yoki umuman yangicha institutlarni ta'riflash, ularga baho berish hamda faoliyati va maqsadlarini tushuntirish muammosi ko'p yillar davomida mutaxassislar e'tiborini tortib kelmoqda va ushbu masala bo'yicha munozaralar hanuz davom etmoqda. Hozirgi kunda ilmiy adabiyotlarda bunday tashkilotlarning yagona va umumqabul qilingan ta'rifi mavjud emas. Ularning ta'riflari faoliyat olib borayotgan mamlakatlarning siyosiy tizimlarining o'ziga xosliklariga qarab farqlanadi. Shu sababli, bu borada salmoqli izlmiiy izlanishlar olib birayotgan tadqiqotchilardan Adil Chag'ri ularni (ekspert-tahlil markazlar) ta'riflashda universal yondashuvlardan ko'ra, har bir mamlakat yoki mintaqaning milliy xususiyatlarini inobatga olish zarur deb hisoblaydi[3]. Shu nuqtayi nazardan, "tafakkur markazlari"ni faol o'rganayotgan mutaxassislar, xususan S.V.Starkin va S.V.Krivov, ingliz tilidagi "think tank" atamasi yoki uning rus tilidagi tarjimai – "mozgovoy sentr" o'rniga "ekspert-tahliliy markazlar" atamasidan foydalanishni afzal ko'radilar[4].

"Aql markazlar"ga oid mavjud ta'rif va yondashuvlarni chuqur tahlil qilish ularning mohiyati, funksiyasi va ijtimoiy-siyosiy tizimlardagi o'rnini to'liq tushunishga imkon beradi. Ilmiy adabiyotlarda mavjud turli yondashuvlarni umumlashtirib, ularni besh asosiy guruhga ajratish mumkin. Har bir guruh muayyan mezonlarga tayangan holda "aql markazlar"ni turlicha talqin etadi.

Birinchi guruh – tashkiliy mustaqillik va nodavlatlik mezoniga asoslangan yondashuvlar. Bu yondashuvga ko'ra, "aql markazlar" hech bir siyosiy partiya, davlat idorasi yoki tijorat guruhi bilan bevosita bog'liq bo'lmagan, mustaqil va notijorat asosda faoliyat yurituvchi institutlar bo'lishi zarur. Masalan, K.Uiver[5;4] ularni davlat, siyosiy partiyalar va boshqa manfaatdor guruhlardan mustaqil, nodavlat va notijorat tashkilotlar sifatida ta'riflaydi. Shuningdek, D.Stoun[6] ekspert-tahliliy markazlar ayniqsa anglosakson madaniyatida davlat va manfaatdor guruhlar ta'siridan nisbatan mustaqil bo'lishi lozimligini, chunki aynan bu mustaqillik ularning intellektual avtonomiyasini va tahliliy faoliyatdagi obyektivlikni kafolatlashini ta'kidlaydi. E.Rich[7] esa tahliliy markazlarni manfaatlar guruhlaridan bevosita bog'liq bo'lmagan, notijorat siyosiy tashkilotlar sifatida ko'rib, ularning asosiy vazifasi siyosat ishlab chiqish jarayoniga ta'sir ko'rsatish uchun ekspert baholari va ilmiy asoslangan tavsiyalar faqat etish ekanligini qayd etadi. Tashqi aloqalar kengashi direktori R.Haas[8] ekspert-tahliliy markazlarni mustaqil ilmiy institutlar sifatida tavsiflab, ularni siyosat va akademiya o'rtasidagi tafakkur bo'shligini to'ldiruvchi institutlar deb ta'riflaydi. Bu yondashuv, ayniqsa, Anglosakson mamlakatlari tajribasiga asoslangan bo'lib, liberal-demokratik siyosiy muhitda shakllangan "aql markazlar" uchun dolzarbdir.

Ikkinchi guruh – gibridd va ko'p sektorli tashkilotlar sifatidagi yondashuvlar bo'lib, unda "aql markazlar" murakkab institutsional tuzilmalar sifatida qaraladi. Bu yondashuvga ko'ra, "aql markazlar" faqat mustaqil tashkilotlar emas, balki davlat, universitet, media va biznes sektorlar bilan o'zaro aloqada bo'lgan ko'p funksiyali tuzilmalardir. T.Medvets faqat tashkiliy tuzilishga asoslangan ta'riflarni tanqid qiladi. Unga ko'ra, bunday yondashuvlar ko'plab ekspert-tahliliy markazlarning davlat, universitet va biznes bilan o'zaro bog'liqligini hisobga olmaydi. Medvets[9;9] bu markazlarning moddiy resurslar va ijtimoiy tan olinishga bog'liqligini ta'kidlab, ularni "gibridd" tashkilotlar deb ataydi, ular akademik doiralari, siyosat, biznes va ommaviy axborot

vositalari chorrahasida joylashgan va keng ijtimoiy funksiyalarni bajaradi. Bu nuqtai nazar ekspert-tahliliy markazlarning mustaqillik darajasi emas, balki ularning ijtimoiy faoliyatga qanchalik bog'liqligiga urg'u beradi. X.Pautts[10] esa konsalting kompaniyalari, universitetlar va "aql markazlar" o'rtasidagi chegaralar tobora noaniq bo'lib borayotganini qayd etadi. Uning fikricha tahlil markazlari, universitet markazlari va konsalting kompaniyalari o'rtasidagi chegaralar yo'qolib, G'arb tashqarisidagi mamlakatlarda "gibridd" tuzilmalar paydo bo'lgani sabab ekspertlarning tahlil markazlarga yondashuvi tubdan o'zgarishini ta'kidlaydi. Shu bois bugungi kunda ekspert-tahliliy markazlarning nafaqat tashkiliy tuzilmasi, balki siyosiy jarayondagi faoliyati va funksiyalari ham markaziy ahamiyat kasb etadi. Nemis tadqiqotchisi R.Fretshner o'zining doktorlik dissertatsiyasida[11] "aql markazlar" muvaffaqiyatining "oltin nisbati"ni fan, siyosat va iqtisod chorrahasidagi faoliyat bilan bog'laydi. Bu yondashuv zamonaviy siyosiy-iqtisodiy tizimlar murakkabligini aks ettirib, "aql markazlar"ning moslashuvchan va turli sektorlar bilan integratsiyalashganligini ko'rsatadi. Ularning kesishmasi ekspert-tahliliy markazlarning akademik, davlat va moliyaviy jihatdan samarali faoliyat ko'rsatish darajasini belgilaydi.

Uchinchi guruh – siyosiy funksional yondashuvlar bo'lib, "aql markazlar"ning siyosiy jarayonlardagi bevosita ishtirokiga e'tibor qaratadi. Bu yondashuv tarafdorlari ularni siyosiy qaror qabul qilishda maslahat beruvchi, axborot yetkazuvchi va muqobil siyosiy takliflar ishlab chiquvchi institutlar sifatida ko'radi. Masalan, J.Makgann[12] tahlil markazlarni siyosiy qarorlarni qabul qilishga ta'sir ko'rsatadigan "beshinchi hokimiyat" deb ataydi, ya'ni qonunchilik, ijro etuvchi, sud hokimiyati va ommaviy axborot vositalaridan keyingi muhim siyosiy institut. Shu bilan birga, ular tashqi siyosat va xalqaro munosabatlar bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borib, davlat organlariga amaliy tavsiyalar beradi. Ushbu talqinlarga ko'ra, "aql markazlari" xalqaro munosabatlarning nodavlat subyektlari bo'lib, intellektual mahsulotlarni ishlab chiqishda va siyosiy, iqtisodiy hamda ijtimoiy-madaniy aloqalarni o'rganishda faol.

Tadqiqotchi Adil Chag'ri[3] tominidan berilgan ta'tifda, ekspert-tahliliy markazlar – tashqi siyosat, iqtisodiyot va ijtimoiy-siyosiy muammolarni o'rganish bilan shug'ullanib, siyosiy qarorlar qabul qilish jarayoniga ta'sir o'tkazish maqsadida barcha manfaatdor tomonlarga tavsiyalar ishlab chiqadigan tashkilotlardir va ularning tadqiqot dasturlari o'zlari tomonidan, yuridik va moliyaviy jihatdan qaysi muassasa bilan bog'liq bo'lishidan qat'i nazar, mustaqil belgilanishi ta'kidlanadi. Bu ta'rifda siyosiy-funksional va tashkiliy mustaqillik mezonlarining sintetik yondashuvini ko'rish mumkin. Bu ta'rifda ekspert-tahliliy markazlarning asosiy vazifasi sifatida siyosiy qaror qabul qilish jarayoniga bevosita ta'sir ko'rsatish hamda tavsiya ishlab chiqish vazifasi belgilangan. Bu esa aynan siyosiy-funksional mezonning asosiy belgisidir. Bundan tashqari, ta'rifda markazlar "yuridik va moliyaviy jihatdan qaysi muassasa bilan bog'liq bo'lishidan qat'i nazar, mustaqil ravishda o'z tadqiqot dasturlarini belgilaydi" degan ifoda mavjud. Bu tashkiliy va intellektual mustaqillik prinsipini ifodalaydi, bu esa Klassik G'arbiy yondashuv mezonlariga to'g'ri keladi. U klassik "think tank" modelini saqlagan holda, ularning amaliy siyosiy rolini ham alohida ta'kidlaydi.

Rossiyalik tadqiqotchi N.A.Medushevsky[13] ekspert-tahliliy markazlarni siyosiy jarayonlarni o'rganish va tahlil qilish bilan shug'ullanuvchi turli institutlar deb ta'riflaydi. Boshqa bir ta'rifida esa, "tahliliy markazlar tizimi – davlat, jamoatchilik va biznes tuzilmalari tomonidan talab qilinadigan maksimal darajada obyektiv, ishonchli va sifatli axborot yaratishga intiluvchi raqobatbardosh tashkilotlar majmuasi"[14] ekanligi ta'kidlanadi. Ular ichki va tashqi

siyosat masalalari bo'yicha qaror qabul qiluvchilarni tavsiyalar bilan ta'minlab, siyosiy qarorlarni ilmiy asoslashda muhim rol o'ynaydi. N.I.Bubnova[15] esa bunday markazlarni jamoat-siyosiy muammolarni o'rganib, mustaqil baholar va tavsiyalar beradigan ekspert-tahliliy tashkilotlar sifatida ko'radi.

To'rtinchi guruh – ilmiy-intellektual mahsulot ishlab chiqarishga asoslangan yondashuvlar bo'lib, bunda “aql markazlar”, avvalo, ilmiy tadqiqotlar olib boruvchi va ekspert xulosalar ishlab chiqaruvchi institutlar sifatida talqin etiladi. Amerikalik siyosatshunos E.Rich[7] “aql markazlar”ni siyosatga oid ekspert bilimlari ishlab chiqaruvchilari sifatida ko'rsatadi. E.Rich ularni siyosatni ishlab chiqishda mustaqil, manfaatdor guruhlardan erkin, notijorat tashkilotlar deb ta'riflaydi. AQShdagi ayrim tahlilchilar va Rossiya olimlari “aql markazlar”ning asosiy vazifasi ilmiy tadqiqot olib borish, nazariy asoslash va siyosiy tavsiyalar ishlab chiqishdan iboratligini ta'kidlaydi. Bu yondashuvda siyosiy ta'sir ikkinchi planda bo'lib, asosiy urg'u intellektual obyektivlik, tadqiqot sifati va ekspertiza asosiga qaratilgan.

Beshinchi guruh – kontekstual (madaniy-siyosiy) yondashuvlar bo'lib, bunda “aql markazlar”ning mohiyati ularning faoliyat yuritayotgan mamlakatdagi siyosiy tizim, madaniyat va fuqarolik jamiyatining rivojlanish darajasiga qarab belgilanadi. Masalan, Braziliyalik tadqiqotchi Y.Hauk fikricha, “aql markazlari”ni aniqlashning klassik yondashuvlari va mezonlari toifalarning ishonchligi haqida ba'zi savollar tug'diradi: "...bu atama hali kontseptualizatsiya qilinmagan va bu uning rivojlanishiga jiddiy cheklovlar qo'yadi". YA'ni “think tank” atamasi hali to'liq shakllanmagan kontsepsiya bo'lib, turlicha talqin qilinishini ta'kidlaydi. R.Fretshner[11] esa “aql markazlar” muvaffaqiyatini milliy siyosiy va iqtisodiy sharoitlarga bog'liq deb hisoblaydi. X.Pautts[10] esa G'arbdan tashqaridagi davlatlarda “aql markazlari” odatda “gibrid” ko'rinishda namoyon bo'lishini va ular G'arbdagi klassik modellarga to'g'ri kelmasligini ko'rsatadi. Bu yondashuv “aql markazlar”ni har doim muayyan siyosiy-madaniy kontekstda baholash zaruriyatini ilgari suradi.

Bir nechta ta'rif va konseptual yondashuvlar tahliliga tayangan holda, tadqiqotchi N.Ivkina quyidagi xulosalarga keladi: “aql markazlari” (ekspert-tahliliy markazlar) tushunchasini quyidagicha shakllantirish mumkin: ular xalqaro munosabatlar tizimida faoliyat yurituvchi nodavlat, notijorat xususiyatga ega ilmiy-tadqiqot tashkilotlari bo'lib, turli ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy muammolar yuzasidan mustaqil tahlillar, tavsiyalar hamda intellektual mahsulotlar ishlab chiqishga ixtisoslashgan. Bu markazlar tashqi va ichki siyosat, xalqaro munosabatlar, xavfsizlik, iqtisodiyot, moliya, ijtimoiy-madaniy jarayonlar, inson huquqlari hamda jamiyatar aloqalarni o'rganish orqali qaror qabul qiluvchilarga va keng jamoatchilikka nazariy va amaliy asos bo'ladigan materiallar taqdim etadi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, rus tilidagi adabiyotlarda “aql markazlari” atamasiga ekvivalent bo'lgan “tahlil markazlari” (analiticheskiye sentri) va “aql markazlari” (mozgoviye sentri) iboralari turlicha qo'llaniladi. Ular ko'pincha sinonim sifatida ishlatilsa-da, ba'zi hollarda funksional va institutsional jihatdan farqlanishi mumkin. Ushbu talqin yuqoridagi mezonlar kombinatsiyasini o'zida namoyon qiladi, ya'ni ushbu ta'rif “klassik anglosakson modeli”ga yaqin bo'lib, mustaqil, ilmiy-tadqiqotga asoslangan, siyosiy jarayonga amaliy ta'sir ko'rsatishga mo'ljallangan aql markazlarining asosiy mezonlarini o'zida jamlagan.

Bundan tashqari quyidagi ta'rifda ham umumiy jihatlar qamrab olinganligini ko'rish mumkin: “Aql markazlari” – bu xususiy manbalar yoki davlat tashkilotlari tomonidan moliyalashtiriladigan, amaliyotga yo'naltirilgan ekspert-tahliliy institutlar va markazlar bo'lib, ularning asosiy

vazifalari tadqiqot, dalillarga asoslangan sharhlar, muayyan ijtimoiy va siyosiy ahamiyatga molik mavzular hamda loyihalar bo'yicha tavsiyalar tayyorlashdir. Ushbu institutlar ko'pincha ilmiy va siyosiy doiralar, davlat va fuqarolik jamiyati o'rtasida ko'prik vazifasini bajaradi, amaliy va fundamental tadqiqotlarni siyosatchilar va jamoatchilik uchun ishonchli va tushunarli talqin qiluvchi mustaqil ovoz sifatida jamoatchilik manfaatlariga xizmat qiladi”.

Yuqoridagi talqinlar va yondashuvlar tahlili asosida yangi davr talablari va global kun tartibiga moslashuvchan quyudagi mualliflik ta'rifini keltirishimiz mumkin: “Aql markazlari – bu siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy muhitda o'zining mustaqil va innovatsion intellektual pozitsiyasini shakllantirgan holda turli soha va manfaatdorlar o'rtasida dialog va o'zaro ta'sir mexanizmlarini rag'batlantiruvchi va ko'prik vazifasini bajaruvchi hamda amaliy siyosatni tubdan o'zgartirish yoki takomillashtirishga yo'naltirilgan, murakkab ijtimoiy-siyosiy transformatsiyalarni boshqarishga qaratilgan amaliy tavsiyalar yaratishga qodir institutlardir”.

Umuman, “aql markazlar”ga oid ta'riflar va yondashuvlar o'zaro qarama-qarshi emas, balki to'ldiruvchi xarakterga ega bo'lib, ularni kompleks tahlil qilish siyosiy maslahat, intellektual ishlab chiqarish va ijtimoiy-legitim pozitsiyalarni aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Har bir yondashuv ma'lum siyosiy-madaniy kontekstdagi “aql markazlar” faoliyatini tushuntirishda foydali bo'lishi mumkin. Shu boisdan, “aql markazlar”ni universal model asosida emas, balki o'ziga xos kontekstual shart-sharoitlardan kelib chiqqan holda tahlil qilish ilmiy izlanishlarda yanada chuqurroq va aniqroq yondashuvlarni shakllantirish imkonini beradi.

So'nggi paytlarda “aql markazlar”ni tashqi siyosat, iqtisodiyot va ijtimoiy-siyosiy muammolarni o'rganish bilan shug'ullanib, siyosiy qarorlar qabul qilish jarayoniga ta'sir o'tkazish maqsadida barcha manfaatdor tomonlarga tavsiyalar ishlab chiqadigan tashkilotlar sifatida ta'riflash yondashuvi kuchaymoqda. Bundan tashqari, ular murakkab ijtimoiy muammolarni keng jamoatchilik uchun tushunarli tilda izohlash vazifasini ham bajaradilar.

Xulosa. Xulosa qilganda, birinchidan, globallashuv sharoitida davlatlar va siyosiy institutlar uchun ilmiy asoslangan, tahliliy va strategik tavsiyalar zarurati ortib bormoqda. Shu sababli, “aql markazlari” siyosat ishlab chiqish jarayonining intellektual tayanch nuqtasiga aylangan, siyosiy qarorlarni ilmiy asosda shakllantirishda va uzoq muddatli strategiyalarni belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi;

Ikkinchidan, “aql markazlar” tushunchasi bo'yicha ilmiy adabiyotlarda turli yondashuvlar mavjud. Ba'zi ekspertlar ularni mustaqil, nodavlat va notijorat tashkilotlar sifatida ko'rishsa, boshqalar “gibrid” tashkilotlar deb atashadi, chunki ular davlat, universitet, biznes va media bilan murakkab aloqada faoliyat yuritadilar. Har bir mamlakat yoki mintaqaning siyosiy tizimi, madaniyati va fuqarolik jamiyatining rivojlanish darajasi “aql markazlar”ning funksional xususiyatlari va mustaqillik darajasini belgilaydi. Misol uchun, G'arb mamlakatlarida klassik “aql markaz” modeli ko'proq mustaqil ilmiy-tadqiqot institutlari sifatida shakllangan bo'lsa, rivojlanayotgan yoki post-sovet davlatlarda ular ko'pincha siyosiy yoki iqtisodiy manfaatdor guruhlar bilan bog'langan “gibrid” tuzilmalarga aylanishi mumkin. Shu sababli, “aql markazlar”ni umumiy va universal ta'rifdan ko'ra, milliy kontekstga mos ravishda tahlil qilish muhimdir;

Uchinchidan, ko'plab ekspertlar “aql markazlar”ni mustaqil, notijorat va siyosiy partiyalar ta'siridan xoli tashkilotlar sifatida ko'rsatadi. Biroq, zamonaviy sharoitda ular ko'pincha davlat, universitetlar, biznes va media sektorlar bilan murakkab aloqada bo'lgan “gibrid” institutlarga aylanmoqda. Bu esa ularning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy faoliyatda moslashuvchanligini ta'minlaydi.

To'rtinchidan, "aql markazlar" siyosiy qarorlar qabul qilishda nafaqat maslahat beruvchi, balki muqobil siyosiy takliflar ishlab chiquvchi muhim institutlardir. Ular siyosiy elita va hukumat organlariga amaliy tavsiyalar berish bilan birga, ba'zan siyosiy kun tartibini shakllantirishda ham faol rol o'ynaydi. Masalan, ular qonunchilik, ijro etuvchi hokimiyat, sud va ommaviy axborot vositalaridan keyingi "beshinchi hokimiyat" sifatida qaraladi. Ularning ilmiy-tahliliy

mahsulotlari siyosiy jarayonlarning asosiy intellektual poydevorini tashkil qiladi va ko'plab strategik qarorlarni shakllantirishda asos bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, "aql markazlar" xalqaro munosabatlar, xavfsizlik siyosati va iqtisodiy rivojlanish kabi sohalarda ham chuqur tadqiqotlar olib borib, nafaqat milliy, balki global darajada ham siyosiy jarayonlarga ta'sir ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR

1. Бўтаев У., Ғаниев О. «Ақлий марказлар» – давлат ва жамият бошқарувини ривожлантирувчи асос// Илмий хабарнома. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar – Scientific Bulletin. Humanitarian Studies. – Андижон. – 2021. – №1(53).
2. Политическая наука: новые направления / под ред. Р. Гудина, Х.-Д. Клингеманна ; науч. ред. Е. Б. Шестопал. – М.: Вече, 1999.
3. Чагры А. Роль экспертно-аналитических центров в принятии внешнеполитических решений: опыт России и Польши. Диссертация на соискание учёной степени кандидата политических наук. – Нижний Новгород 2025.
4. Старкин С.В., Кривов С.В. Эволюция и типология экспертно-аналитических центров Европейского Союза // Право и политика. – 2016. –№. 8.
5. McGann J.G., Weaver K. Think tanks and civil societies in a time of change. – New York, 2000.
6. McGann J. The Fifth Estate: Think Tanks, Public Policy, and Governance. –Washington: Brookings Institution Press, 2016.
7. Rich A. Think Tanks, Public Policy and the Politics of Expertise. – New York: Cambridge University Press, 2004.
8. Haas R. Think Tanks and U.S. Foreign Policy: A Policy-Maker's Perspective, 01.10.2002 // U.S. Department of State. – 2002. //http://2001-2009.state.gov/s/p/rem/15506.htm
9. Medvetz T. Think tanks in America. – Chicago: University of Chicago Press, 2012.
10. Pautz H. Think Tanks and policymaking // Oxford Research Encyclopedia of Politics. – 2020.
11. Fretschner R. Zwischen Autonomie und Heteronomie – Wissenschaft als Dienstleistung: Inauguraldissertation zur Erlangung des akademischen Grades eines Doktors der Sozialwissenschaft. – Bochum: Ruhr-Universität, 2006.
12. «Tanklar» nima haqida o'ylaydi?// <https://www.gazeta.uz/oz/2021/02/12/think-tank/>
13. Медушевский Н.А. Фабрики мысли в ЕС: Сравнительный анализ европейского и американского исследовательских подходов // Вестник Российского университета дружбы народов. Серия: Политология. – 2010. – №. 1.
14. Медушевский Н.А. Аналитические центры в политическом процессе: американская модель «фабрик мысли» и ее функционирование за пределами США\«ПОЛИТИЯ.» –2010. –№ 1 (56.)
15. Бубнова Н.И. «Мозговые центры» как актор современной политики // Сравнительная политика. – 2017. – Т. 8. – № 3.